



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

O‘ZBEK, RUS VA INGLIZ TILLARIDA PUNKTUATSIYANING FUNKSIONAL VA USLUBIY-LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Turayeva Dilbar Meyliyevna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, (PhD), dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek, rus va ingliz tillarida punktuatsiya tizimining umumiy jihatlari qiyosiy-tipologik asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda tinish belgilarining semantik, sintaktik va pragmatik funksiyalari aniqlanib, ularning matn mazmunini shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Uch til materiallari asosida tinish belgilarining ajratish, chegaralash va ta’kidlash vazifalari umumiy ekanligi isbotlanadi. Shuningdek, punktuatsiyaning lingvokulturologik xususiyatlari va zamonaviy tilshunoslikdagi o‘rni muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: punktuatsiya, tinish belgilari, qiyosiy tahlil, semantika, sintaksis, pragmatika, lingvokulturologiya, o‘zbek tili, ingliz tili, rus tili.

ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ И СТИЛИСТИКО-ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПУНКТУАЦИИ В УЗБЕКСКОМ, РУССКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Тураева Дилбар Мейлиевна

Университет экономики и педагогики, (PhD), доцент

Аннотация

В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ системы пунктуации в узбекском, русском и английском языках. Исследуются семантические, синтаксические и прагматические функции знаков препинания, а также их роль в формировании смысла текста. На материале трех языков доказывается, что основные функции пунктуации — разграничение, членение и акцентирование — являются универсальными. Кроме того, рассматриваются лингвокультурологические особенности пунктуации и её место в современной лингвистике.

Ключевые слова: пунктуация, знаки препинания, сравнительный анализ, семантика, синтаксис, прагматика, лингвокультурология, узбекский язык, английский язык, русский язык.

FUNCTIONAL AND STYLISTIC-LINGUOCULTURAL FEATURES OF PUNCTUATION IN UZBEK, RUSSIAN, AND ENGLISH

Turayeva Dilbar Meyliyevna

University of Economics and Pedagogy, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article presents a comparative typological analysis of punctuation systems in Uzbek, Russian, and English. The study examines the semantic, syntactic, and pragmatic functions of punctuation marks and their role in shaping textual meaning. Based on materials from the three languages, it is demonstrated that the main functions of punctuation—segmentation, delimitation, and emphasis—are universal in nature. The paper also discusses the linguocultural features of punctuation and its role in modern linguistics.

Keywords: punctuation, punctuation marks, comparative analysis, semantics, syntax, pragmatics, linguoculturology, Uzbek language, English language, Russian language.

Tinich belgilari yozma nutqning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, fikrni aniq, izchil va tushunarli ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat sintaktik tuzilmani belgilaydi, balki matnning semantik va pragmatik mazmunini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan punktuatsiya tizimi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Punktuatsiyaning mohiyatini ifodalashda Anton Pavlovich Chexov tomonidan ilgari surilgan “tinich belgilari — yozma nutqning o‘qish notalaridir” degan fikr uning kommunikativ va ekspressiv ahamiyatini ochib beradi. [1; 86–87-b.] Ayniqsa, tinich belgilarining qo‘llanishi yoki qo‘llanmasligi natijasida gap mazmunining o‘zgarishi ularning semantik yukini yaqqol namoyon etadi.

O‘zbek, rus va ingliz tillari turli til oilalariga mansub bo‘lsa-da, ularning punktuatsiya tizimida umumiyliklar mavjud. Shu bilan birga, har bir tilning o‘ziga xos lingvokulturologik xususiyatlari tinich

belgilarining qoʻllanishida muayyan farqlarni yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi — oʻzbek, rus va ingliz tillarida punktuatsiyaning umumiy jihatlari hamda asosiy funksiyalarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodlari (methods)

Mazkur tadqiqotda oʻzbek, rus va ingliz tillarida punktuatsiya tizimini oʻrganish uchun qiyosiy-tipologik va deskriptiv metodlardan foydalanildi. Qiyosiy-tipologik metod yordamida uch til punktuatsiya tizimining umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, ularning funksional xususiyatlari solishtirildi.

Shuningdek, kontekstual tahlil metodi asosida tinish belgilarining gap va matn doirasidagi semantik hamda sintaktik roli misollar orqali oʻrganildi. Tadqiqot jarayonida badiiy va ilmiy matnlardan olingan materiallar tahlil qilinib, punktuatsiyaning ajratish, chegaralash va taʼkidlash funksiyalari aniqlashtirildi. Bundan tashqari, lingvokulturologik yondashuv asosida tinish belgilarining nutq egasining tafakkuri va madaniy xususiyatlari bilan bogʻliqligi ham izohlandi. [2; 67–68-b.]

Qiyoslanayotgan tillar — oʻzbek tilida ham, rus tilida ham, ingliz tilida ham tinish belgilarining bu qirrasini toʻla namoyon boʻladi. Masalan, oʻzbek tilida chiroyli paltoli qiz / chiroyli, paltoli qiz jumlarida birinchi holatda paltoning chiroyliligi, ikkinchi jumlada qizning chiroyliligi maʼnosi anglashiladi. Yoki: Gullar chiroyli stolni bezab turibdi / Gullar chiroyli, stolni bezab turibdi. Birinchi gapda stol chiroyli, sodda gap; ikkinchi gapda gullar chiroyli, qoʻshma gap.

Xuddi shuningdek, ingliz tilida ham tinish belgisiga ushbu funksiyalar yuklanganini kuzatish mumkin. Masalan, *Let's eat, grandma!* / *Let's eat grandma!* (L. Truss). Birinchi gapda *grandma* (Buvi, ketdik ovqatlanamiz) undalma, ikkinchi gapda *hol* (Ketdik buvimni yeymiz). *Tom Perry and I* / *Tom, Perry and I*. Birinchi jumla ikki kishi (Tom Perry va men), ikkinchi jumlada uch kishi (Tom, Perry va men) nazarda tutilmoqda. Yoki: *The headmaster said the teacher is a fool* / *The headmaster, said the teacher, is a fool*. Birinchi gap sodda, ikkinchi gap qoʻshma gap. Yoki rus tilida punktuatsiya boʻyicha bajarilgan ishlarda qoʻllanishi anʼanaga aylangan *Казнить, нельзя помиловать!* / *Казнить нельзя, помиловать!* jumlarida ham vergulning gapning ham semantik asosi, ham sintaktik qurilishiga jiddiy taʼsir etayotganini misol sifatida keltirish mumkin. [3; 124–125]

Zamonaviy punktuatsiya tinish belgilarining aynan ana shunday imkoniyatlariga katta eʼtibor qaratmoqda. Tilshunoslikda tinish belgilarining tafakkur mahsulini til sohibining millati, aqliy faoliyati, uning qiziqishlariga mos ravishda nutqda yuzaga chiqarish bilan bogʻliq qirralarini bir necha tillar misollarida qiyosiy oʻrganish bilan birga xususiy va umumiy, meʼyoriy va tartibga boʻysunmaydigan punktuatsiya tadqiqiga eʼtibor kuchaymoqda.

Natijalar (results)

Tadqiqot natijalari oʻzbek, rus va ingliz tillarida punktuatsiya tizimi umumiy funksional asosga ega ekanligini koʻrsatdi. Tahlillar natijasida tinish belgilarining uchala tilda ham asosiy vazifalari — ajratish, chegaralash va taʼkidlash ekanligi aniqlandi.

Birinchidan, tinish belgilarining semantik funksiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Yaʼni, ularning qoʻllanishi yoki qoʻllanmasligi gap mazmunining oʻzgarishiga olib keladi. Masalan, oʻzbek tilidagi chiroyli paltoli qiz va chiroyli, paltoli qiz birliklarida vergul maʼno differentsiatsiyasini yuzaga keltiradi. Xuddi shuningdek, ingliz tilida *Let's eat, grandma!* va *Let's eat grandma!* jumalari hamda rus tilidagi *Казнить, нельзя помиловать!* va *Казнить нельзя, помиловать!* misollarida tinish belgilarining semantik yuklamasi yaqqol namoyon boʻladi.

Ikkinchidan, punktuatsiyaning sintaktik funksiyasi aniqlanib, tinish belgilar gap boʻlaklari va gaplar oʻrtasidagi munosabatlarni belgilashi kuzatildi. Xususan, vergul uyushiq boʻlaklarni ajratish, kirish birliklarni chegaralash hamda qoʻshma gap qismlarini bogʻlash vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, funksional taqsimot jihatidan gap oxirida qoʻllanadigan tinish belgilar (nuqta, soʻroq va undov belgilar) asosan ajratish vazifasini bajarishi, gap ichida qoʻllanadigan belgilar (vergul, tire, qoʻshtirnoq) esa murakkab funksiyaga ega boʻlib, bir vaqtning oʻzida bir necha vazifani bajarishi aniqlandi.

Shuningdek, tahlillar uchala til punktuatsiya tizimida grafik va uslubiy variantlilik mavjudligini koʻrsatdi. Ayniqsa, ingliz tilida tire (em dash, en dash), apostrof hamda qoʻshtirnoqning turli shakllari keng qoʻllanilishi bilan ajralib turadi. [4; 64–65]

Ayni paytda dunyo yozuvlarining aksariyati, jumladan, oʻzbek, ingliz, rus tilida grafikaning markaziy sistemasiga kiritilgan quyidagi tinish belgilaridan foydalaniladi:

Muhokama (Discussion)

Olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek, rus va ingliz tillarida punktuatsiya tizimi umumiy funksional asosga ega boʻlib, ularning barchasida tinish belgilarining ajratish, chegaralash va taʼkidlash

vazifalari yetakchilik qiladi. Bu holat punktuatsiyaning universallik xususiyatini tasdiqlaydi va uni turli tillarda yozma nutqni tashkil etuvchi muhim lingvistik vosita sifatida baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga, qiyosiy tahlil natijalari har bir til punktuatsiya tizimida milliy va lingvokulturologik xususiyatlar mavjudligini ham ko'rsatdi. Xususan, rus tilida punktuatsiya me'yorlari nisbatan qat'iy va normativ xarakterga ega bo'lsa, ingliz tilida variantlilik va uslubiy erkinlik yuqori darajada namoyon bo'ladi. O'zbek tilida esa punktuatsiya tizimi tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan bo'lib, hozirgi bosqichda uning ilmiy asosda takomillashuvi kuzatilmoqda. Tadqiqot natijalari punktuatsiyani faqat sintaktik hodisa sifatida emas, balki semantik va pragmatik omillar bilan uzviy bog'liq tizim sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, tinish belgilarining matn mazmuniga ta'siri, muallifning kommunikativ niyatini ifodalashi hamda nutqning ekspressivligini oshirishdagi roli ularning ko'p funktsionalligini namoyon etadi.

Shuningdek, zamonaviy tilshunoslikda punktuatsiyani lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki tinish belgilarining qo'llanishi nafaqat til tizimi, balki nutq egasining tafakkuri, madaniyati va kommunikativ tajribasi bilan ham bog'liqdir.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari punktuatsiya tizimining universalligi va o'ziga xosligini birgalikda namoyon etadi hamda uni qiyosiy tilshunoslik doirasida o'rganish istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanligini tasdiqlaydi. [7; 98–99]

Sintaksis doirasida shakllangan mavjud punktuatsion nazariyalarda qiyoslanayotgan har uch tilda ushbu tinish belgilariga quyidagi asosiy umumiy vazifalar yuklanishi kuzatiladi: [8; 43–44-b.]

Tinish belgilarini qo'llashning umumiy tamoyillari hamda vazifalari asosida ishlab chiqilgan quyidagi umumiy mezonlar ayni paytda ingliz, rus va o'zbek tillari uchun birdek amal qiladi:

1. Nuqta. Точка. Full stop or period (dot)

1.1. Gapning tugallanganligiga ishora qilish, matn tarkibidagi gaplarni ajratish: Dimoqqa qizigan asfalt hidi uriladi. (O'. Hoshimov) / Девочка приехала растерянная и счастливая. (К. Симонов) / That is the last question I remember. My body was unable to handle the rapid swelling in my brain and I lost consciousness before the ambulance arrived. (J. Klir)

1.2. Qisqartirilganlikka ishora qilish: A. Navoiy, Z. M. Bobur kabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. / И. Виткевичу, ломким почерком наместника было начертано: “В солдаты. Без выслуги...” (Б. Федотов) / The correct answer was George W. Bush. (J. Klir)

2. Vergul. Запятая. Comma

2.1. Gapning teng qismlari — uyushiq bo'laklarni ajratish: Osmonda, daraxtlarda, tomlarda, bo'g'otlarda chumchuqlar chirqillashadi. (M. Ismoiliy) / Так скрипач любит свою скрипку, картинки и портфель. (Ю. Семенов) / Jane had an especial taste in music: rock, jazz, pop and classical.

2.2. Undalmani chegaralash: Xudoning dargohi keng, o'g'lim, tavba qil. (I. Sulton) / — Здравствуй, Мари, как ты проживаешь? — сказал он... (Л. Толстой) / “Come here, sonny,” said he. (R. Stivenson)

2.3. Ajratilgan bo'laklarni chegaralash: Enaxonning onasi, o'zi pakana va uning ustiga bukchaugan kampir, o'yin qilgan bo'lib, hammani kuldirdi. (Cho'lpon) / Казначей Досим-бей, погубивший в свое время князя Бековича, сидел по левую руку хана. (А. Горбовский) / “But what can one expect from a woman like her, who wastes her days snuffling around behind Leo Nikolayevich's back like a dog, trying to unearth some new bone of discord.” (Jay Parini) [9; 67–68]

2.4. Kirish so'z va kirish birikmani ajratish: Nihoyat, mo'ljallagan joyiga yetib keldi. (Sh. Boshbekov) / Как известно, беда не приходит одна. (К. Симонов) / Namely, it was her natural shyness. However, this work was not wasted. (J. Klir)

2.5. Ohang yordamida birikkan qo'shma gap qismlarini chegaralash: Menga alam qilar, tilla baliqcha bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni... (A. Oripov) / Она уже не пела, а собравшиеся на небе тучки сделали ночь еще темней. (М. Горький) / The San Antonio Spurs, one of the most successful teams in NBA history, have a quote from social reformer. (J. Klir)

Tahlillarimiz asosida xulosa qilish mumkinki, ayni paytda har uch til punktuatsion tizimida amal qilayotgan joriy umumiy me'yorlarning asosida, asosan, uch vazifa:

— ajratish;

— chegaralash;

— ishora qilish, ta'kidlash vazifalari yetakchilik qiladi. [10; 67–68-b.]

Umuman olganda, olingan natijalar punktuatsiya tizimining uchala tilda ham umumiy nazariy asosga ega ekanligini, biroq ularning qo'llanishida muayyan milliy va uslubiy xususiyatlar mavjudligini

tasdiqlaydi.

Shuningdek, tinish belgilari tarixida nisbatan ilgari paydo bo'lgan, gap oxirida qo'llanadigan belgilar, masalan, nuqta, undov belgisi, so'roq belgisi kabilarning funksional jihatdan sodda bo'lib, asosan, ajratish vazifasini bajarishi va ushbu vazifalar bir nechta tillarga mansub punktuatsion tizimda amal qilishi, keyinroq paydo bo'lgan gap ichida qo'llanuvchi tinish belgilari, xususan, vergul, tire, qo'shtirnoq funksional jihatdan murakkab ekani, ajratish, chegaralash, ishora ma'nolarini bildirishi bilan xarakterlanadi. [11; 34–35-b.]

Xulosa (Conclusion)

Mazkur maqolada o'zbek, rus va ingliz tillarida punktuatsiya tizimining umumiy va o'ziga xos jihatlari qiyosiy-tipologik yondashuv asosida tahlil qilindi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, uchala tilda ham tinish belgilari yozma nutqni tashkil etishda bir xil asosiy funksiyalarni bajaradi.

Xususan, punktuatsiyaning ajratish, chegaralash va ta'kidlash kabi asosiy vazifalari universal xarakterga ega bo'lib, ular barcha tillarda matnning semantik, sintaktik va pragmatik tuzilishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, har bir tilning tarixiy rivojlanishi va lingvokulturologik xususiyatlari punktuatsiya tizimida muayyan farqlarni yuzaga keltiradi. Rus tilida normativlikning kuchliligi, ingliz tilida uslubiy variantlilikning kengligi hamda o'zbek tilida tizimning bosqichma-bosqich takomillashuvi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Umuman olganda, punktuatsiya nafaqat texnik yozuv vositasi, balki nutqning mazmuniy va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiruvchi murakkab lingvistik tizimdir. Shu sababli uni qiyosiy tilshunoslik, pragmatolingvistika va lingvokulturologiya doirasida o'rganish kelgusidagi tadqiqotlar uchun dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Chekhov A.P. Pis'ma (Letters): 1888 yil 13-fevraldagi N.A. Xlopkovga maktub // Полное собрание сочинений и писем. — Москва: Наука, 1974.
2. Вахриддинова В.М. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. — Toshkent: Akademnashr, 2015.
3. Биянова М.В. Пунктуационные системы: синхронный и диахронный аспекты. — Ижевск, 2010.
4. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek tilida punktuatsiya. — Toshkent, 1955.
5. Nazarov K. O'zbek tili punktuatsiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1976.
6. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek tili (sintaksis). — Toshkent: O'qituvchi, 1987.
7. Кобрин Н.А., Малаховский Л.В. Английская пунктуация. — Москва: Высшая школа, 1959.
8. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. — Москва: Наука, 1980.
9. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. — Ленинград, 1974.
10. Peirce C.S. Collected Papers of Charles Sanders Peirce. — Cambridge: Harvard University Press, 1931–1958.
11. Halliday M.A.K. An Introduction to Functional Grammar. — London: Edward Arnold, 1994.